

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.19/04.07.2023.1.88.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

ZULFIKAROV FARXOD YULDASHXODJAYEVICH

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YIRIK KORXONALARDA
G‘AZNACHILIK TIZIMINI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI**

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Zulfikarov Farxod Yuldashodjayevich

Raqamli iqtisodiyot sharoitida yirik korxonalarda g‘aznachilik tizimini
tashkil etish istiqbollari..... 3

Зулфикаров Фарход Юлдашходжаевич

Перспективы организации казначейской системы на крупных
предприятиях в условиях цифровой экономики..... 29

Zulfikarov Farkhod Yuldashkhodjaevich

Prospects for the creation of a treasury system at large enterprises in the
digital economy..... 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 62

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.19/04.07.2023.1.88.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

ZULFIKAROV FARXOD YULDASHXODJAYEVICH

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YIRIK KORXONALARDA
G‘AZNACHILIK TIZIMINI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI**

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025-yil

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.2.PhD/Iqt13148 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi biznes va tadbirkorlik oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) tayyorlangan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi rasmiy web-saytida (www.rgsbm.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) e'lon qilingan.

Ilmiy rahbar:

Boboqulov To'lqin Ibodullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Teshaboyev To'lqin Zakirovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Iminova Nargiza Akramovna
Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:


O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi


Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi huzuridagi DSc.19/04.07.2023.1.88.01 raqamli ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashning 2025-yil "25" - 07 soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: Toshkent shahri, Mirobod ko'chasi, 25-uy. Tel. (99871) 239-03-05; faks (99871) 239-03-03; e-mail info@gsbe.uz


Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida tanishish mumkin (7 - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahri, Mirobod ko'chasi, 25-uy. Tel. (99871) 239-03-05; faks (99871) 239-03-03; e-mail info@gsbe.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "14" - 07 kuni tarqatildi.
(2025-yil "14" - 07 7 -raqamli reyestr bayonnomasi).




D.X. Suyunov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor


T.U. Qndirov
Ilmiy darajalar berish bo'yicha ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent


A.T. Kenjabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida muomaladagi naqd pullarning kamayishi, qayta moliyalashtirish foiz stavkalarining ko'tarilishi va yuqori iqtisodiy o'zgaruvchanlik sharoitida g'aznachilik boshqaruviga maxsus ko'nikmalar talab qilinadi hamda moliyaviy mablag'lar va risklar boshqaruvida qo'shimcha yuklamalar paydo bo'ladi. G'aznachilik boshqaruvining asosiy maqsadi tashkilotning kelajakdagi moliyaviy maqsadlariga erishish uchun zarur pul mablag'larini rejalashtirish, moliyaviy boshqaruvni to'g'ri tashkil etish va nazorat qilishdan iborat. Raqamlashtirilgan g'aznachilik aylanma mablag'larning samarali moliyalashtirilishini ta'minlaydi, moliyaviy xatarlarni faol ravishda aniqlaydi va kamaytiradi hamda kompaniyaning o'sishini moliyalashtirish uchun likvidlikni qo'llab-quvvatlaydi¹. Citi kompaniyasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, yuqori samarali g'aznachilik tizimlariga ega korxonalar so'nggi 5 yil ichida qo'shimcha \$44 milliard dollar daromad olishgan². Bu esa o'z navbatida korxonalar moliyaviy faoliyati samaradorligini oshishiga olib kelgan.

Bugungi kunda boshqaruvchilar g'aznachilikni boshqarish tizimini takomillashtirish asosida kompaniyaning ichki siyosatiga mos keladigan risklarni aniqlash orqali moliyaviy yo'qotishlarni minimallashtirishga intiladilar. G'aznachilik boshqaruvi orqali operatsion va moliyaviy risklarni minimallashtirish bilan birga mablag'larni ham samarali boshqarish imkoni tug'iladi. G'aznachilikni boshqarish tizimini raqamlashtirish hisobiga korxonalarda moliyaviy xavflarni kamaytirish imkoni 54 foizga yaxshilanganligini ko'rish mumkin³. Bundan tashqari, g'aznachilikni raqamlashtirish orqali korxonalar moliya xodimlari ish vaqtlarini 30-40 %gacha⁴ tejashi, korxonalar bank xizmatlari uchun to'lovlarini taxminan 10 %ga kamayishi hamda kompaniyalararo operatsiyalarni hisobga olish va nizolarni samarali boshqarish tufayli har bir tashkilot uchun o'rtacha oyiga 2 kun vaqtni tejashi, 30 ta tizim tashkilotlarida esa 250 000 dan 1 million dollargacha⁵ (bank komissiyalari, valyuta ayirboshlash va h.k.) yillik xarajatlarni tejab qolishi mumkin ekanligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham iqtisodiyotni raqamlashtirish xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish asosiy vazifalardan biri sifatida ko'rilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan O'zbekiston iqtisodiyotini raqamlashtirish o'z o'rnida tadbirkorlik subyektlari, aholi va butun respublika iqtisodiy xavfsizligini ta'minlovchi chora-tadbirlar tizimi sifatida temir yo'l sohasida ham tub

¹ Shahmir Khaliq. Citi global xizmatlarining rahbari.

² Korporativ g'aznachilar uyushmasi (<https://www.treasurers.org/hub/treasurer-magazine/digital-investment-pays-dividends-for-leading-treasuries>) internet resurslari ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

³ FISGlobal internet nashri ma'lumotlari (<https://www.fisglobal.com/insights/digital-treasury-management-solutions-can-reduce-operational-costs>)

⁴ Treasury4 kompaniya (<https://www.treasury4.com/the-digital-transformation-of-treasury>) ma'lumotlari.

⁵ Elire's Founding Partners kompaniya ma'lumotlari (<https://elire.com/understanding-the-value-of-a-treasury-management-system/>)

o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Keyingi yillarda temir yo'l sohasini hamda tizim korxonalari faoliyatini raqamlashtirish jamiyatimiz iqtisodiy islohotining muhim vazifalaridan biriga aylandi. "Temir yo'l korxonalarining moliyaviy holatini mustahkamlash, yo'lovchi va yuk tashish tannarxini kamaytirish, operatsion samaradorlikni ta'minlash borasida hisobdorlik va rag'batlantiruvchi muhitni yaratish"⁶ jahondagi beqaror moliyaviy vaziyat tufayli eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining "Masofaviy audit"⁷ avtomatlashtirilgan tizimi orqali korxonalar va tashkilotlarning 443,5 mlrd. so'mlik ortiqcha sarf-xarajatlari va 85,2 mlrd. so'mlik davlat xaridlariga oid qonun buzilishlarining oldi olindi. Bundan tashqari davlat xaridlari sohasida ikki yo'nalish bo'yicha dastlabki sinovlarda sun'iy intellekt inson aralashuvisiz korxonalarda jami 6 mlrd. so'mlik 254 ta holatlarni risk sifatida baholab berdi⁸.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "“Raqamli O'zbekiston—2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni, 2023-yil 10-oktabrdagi PQ-329-son "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori, 2024-yil 10-iyuldagi "Budjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PF-100-son Farmoni, 2024-yil 3-dekabrda PF-70-son "Temir yo'l sohasida transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish to'g'risida”gi farmonlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi⁹.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari" doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Budjet ijrosining g'azna tizimi hamda uni tartibga solish, yirik korxonalarda g'aznachilik tizimini tashkil etish, raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonani samarali boshqarishning o'ziga xos jihatlari I.G.Akparov, I.R.Zaripova, V.Xafizova, N.G.Ivanova, T.D.Makovnik, X.N.Gizatullin, A.A.Korolyov, A.V.Larin, I.Borisyuk, O.R.Nedospasova, T.E.Baklanova, L.V.Bakulevskaya, V.V.Kovalyov, T.P.Satsuk, J.Diamond,

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-329-son qarorining I bandi.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi "Budjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PF-100-son Farmoni.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2024-yilgi faoliyati to'g'risidagi hisobotidan (<http://www.ach.gov.uz/uz/lists/view/439>).

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli "“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni, 31.12.2024 yildagi PF-70-son "Temir yo'l sohasida transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish to'g'risida”gi farmoni, 10.10.2024 yildagi "Budjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-100-son Farmoni, 10.10.2023 yildagi PQ-329-son "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.

H.Barry, B.Potter, P.Polak, F.Masquelier, G.Michalski kabi xorij olimlari tomonidan tahlil qilingan¹⁰.

G‘aznachilikni tashkil etishning nazariy, huquqiy, tashkiliy asoslari, davlat budjetini g‘aznachilik usuli bilan boshqarish va xorij mamlakatlaridagi g‘aznachilik faoliyati masalalari bo‘yicha yurtimiz iqtisodchi olimlaridan T.Sh.Eshnazarov, G.A.Qosimova, T.S.Qo‘chqorov, A.J.Tuychiyev, D.A.Tashmuxeimedova, A.Jo‘rayevlar, N.Jumayev, U.Burxonov, A.Razzoqov, Sh.Toshmatov, N.O‘rmonov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida ko‘rib chiqilgan¹¹.

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida, aynan yirik korxonalarda zamonaviy o‘zgarishlar ta‘sirini hisobga olgan holda g‘aznachilik tizimini raqamlashtirish asosida tashkil etish va bu borada yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammo va to‘siqlar, jumladan, uni ma‘lum bir dasturiy platforma asosida joriy etish masalalari tizimli tadqiq qilinmaganligi sababli bu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Raqamli iqtisodiyot sharoitida yirik korxonalarda g‘aznachilik tizimini tashkil etish istiqbollari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida yirik korxonalarda g‘aznachilik tizimini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

¹⁰ Акпаров И.Г. Казначейская система исполнения бюджета в Российской Федерации. –М.: Финансы и статистика. 2002. 340с., Зарипова И.Р., Хафизова В.Р. История развития и современное состояние межбюджетных отношений в России. - 2- изд.Уфа, ГП «Принт», 2001. -181с, Иванова Н.Г, Маковник Т.Д. Казначейская система исполнения бюджетов. -СПб: Петер, 2001. 208с., Гизатуллин Х.Н., Зарипова И.Р. Формирование и проблемн расширения самостоятельности местных бюджетов в условиях рыночных отношений. - 2-изд. Уфа, Институт экономики УрО РАН, 2001. -248с., Королев А.А. Ларин А.В. Банковские расчетные продукты для современного казначейство. // Расчеты и операционная работа в коммерческом банке. 2009. Борисюк И.А. Недоспасова О.Р. Корпоративные казначейства: новые возможности для повышения эффективности финансовых потоков//Известия УрГЭУ. - Екатеринбург , 2011. - №1(33). – С. 5-9.; Бакланова Т. Э. Казначейская служба корпорации: ее функции и роль в централизованном управления денежными потоками//Московский экономический журнал. – Москва, 2020. - №5. – С. 409-415.; Бакулевская Л. В. Управление денежными потоками: теоретический и методический аспекты. Монография. Йошкар-Ола: ООО «Стринг», 2011.-161 с.; Ковалев В. В. Управление денежными потоками, прибылью и рентабельностью : учеб.-практ. пособие. М.: Проспект, 2008-243с.; Сацук Т. Р. Преобразование учетно-аналитической информации в казначейской службе предприятия//Вестник Сибгау. – Красноярск, 2013. - № 2(48). – С. 11-19.; Diamond J., Barry H Potter B. Building Treasury Systems//Finance & Development / September, 2000. – P. 36-39.; Polak P, Masquelier F., Michalski G. Towards treasury 4 / The evolving role of corporate treasury management for 2020//Journal of Contemporary Management Issues, 2018 – № 23(2). – P. 189–197.

¹¹ Eshnazarov T. Faznachilik tizimi munosabatlari. - T.: “Fan”, 2008. -303-b. Qosimova G.A. “G‘aznachilik faoliyatini tashkil qilish”. O‘quv qo‘llanma. “Iqtisod-moliya”. T., 2005.. Qo‘chqorov T.S. ““Raqamli iqtisod”ga o‘tish davrida O‘zbekistonda g‘aznachilik axborot tizimini innovatsion rivojlantirish istiqbollari” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi, Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislari to‘plami. 2018-yil 27-aprel. Tuychiyev A.J., Tashmuxeimedova D.A. G‘aznachilik. Darslik. – T.: “Iqtisod moliya” 2019. - 834 b. Jo‘rayev A. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari. Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Fan nashriyoti. 2004.-244b., Jumayev N, Burxonov U. “Moliyaning dolzarb muammolari” Toshkent. 2003y., Razzoqov A., Toshmatov Sh., O‘rmonov N. Iqtisodiy ta‘limotlar tarixi. Toshkent. Moliya. 2002. -492b.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

raqamli iqtisodiyot sharoitida g'aznachilik tizimini tashkil etish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarni tadqiq qilish;

xarajatlar hisobini tashkil etishda g'aznachilik tizimi nazorati o'rnini tadqiq qilish va amaliy baholash;

xorij mamlakatlarida g'aznachilik faoliyatini tashkil etishning nazariy asoslari va amaliy ahamiyatini tahlilini amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi g'aznachilik tizimining hozirgi holatini tahlil qilish hamda rivojlanishi borasida ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;

korxonalarda raqamlashtirilgan g'aznachilik tizimini tashkil etish doirasida davlat xaridlarini tashkil etish mexanizmlari va huquqiy asoslarining ilg'or xorij tajribasini tadqiq qilish hamda ularni O'zbekiston amaliyotida qo'llash imkoniyatlarini asoslash;

yirik korxonalarda raqamlashtirilgan g'aznachilik tizimini joriy etish va takomillashtirishda vujudga kelayotgan dolzarb muammolarni aniqlash hamda ularni yechimlari yuzasidan korxonaga mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati takibidagi "Temiryo'linfratuzilma" aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy faoliyati tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti raqamli iqtisodiyot sharoitida yirik korxonalarda g'aznachilik tizimini tashkil etish bilan bog'liq moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida adabiyotlar tahlili, statistik tahlil, bashorat qilish, istiqbolli tahlil, ekspert baholash, bashoratlash, matematik modellash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yirik korxonalarda g'aznachilik tizimini va moliyaviy mablag'lari oqimlarini samarali boshqarish maqsadida korxonaga tegishli xodimlarni "Moliyaviy boshqaruv", "Raqamlashtirish" sohasida o'qitish hamda rivojlantirish orqali mehnat unumdorligini oshirish mumkinligi taklif etilgan;

g'aznachilik tizimini raqamlashtirish asosida tashkil etish hisobiga davlat xaridlarini amalga oshirishda korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasini minimallashtirish taklifi asoslangan;

yirik korxonalarda samarali pul oqimi rejalarini tuzish, tashkilot bo'yicha to'lov grafiklarini shakllantirish, pul oqimlarini onlayn tahlil qilish, debitorlik va kreditorlik qarzdorliklarini samarali boshqarish maqsadida "1C-Buxgalteriya" raqamli dasturiy platformasining o'zaro integratsiyalashgan modulli yechimlari yordamida g'aznachilikni tashkil etish orqali xarajatlarni kamaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

korxonalarining turli faoliyatiga doir barcha kerakli hisobotlar, to'lov topshiriqnomalari, shartnomalar va boshqa hujjatlarni qisqa vaqt ichida elektron shaklda yaratish, hisob-kitoblarni onlayn amalga oshirish maqsadida g'aznachilik tizimini raqamli platformalar yordamida tashkil etish orqali korxonaga hisobotlari sifati hamda xavfsizligi oshishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

g'aznachilik tizimini raqamli texnologiyalar yordamida joriy etishni bu sohada muvaffaqiyatga erishgan ilg'or xorij tajribasidan foydalangan holda rivojlantirish taklifi ishlab chiqilgan;

raqamlashtirish sharoitlarida yirik korxonalarda g'aznachilik tizimini joriy etish davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammo va to'siqlar tadqiq etilib, ularni barataraf qilishga doir takliflar ishlab chiqilgan;

g'azna ijrosininig moliyaviy natijalarini monitoring qilish, shartnomalarni bajarish tartibini takomillashtirish, moliyaviy manbaalarning maqsadli sarf etilishi hamda davlat xaridlarini amalga oshirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish korxonada davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonini avtomatlashtirilgan yagona axborot tizimi bilan ta'minlash orqali amalga oshirilish imkoniyati asoslangan;

g'aznachilik tizimini yirik korxonalar faoliyatiga joriy etish va buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiqlashtirishni amalga oshirishda, ularni bir-biriga integratsiya qilish, tegishli tashkilotlar hisobotini va boshqa analitik axborotlarni tayyorlashda "1C: Buxgalteriya" dasturiy platformasidan foydalanish imkoniyatlari asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan yirik korxonalar faoliyatida g'aznachilik tizimini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda manba sifatida foydalanish mumkinligi, g'aznachilik tizimida faoliyat yurituvchi mutaxassislar va ta'lim oluvchilarning iqtisodiy bilimlari doirasini kengaytirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan moliya tizimida hamda yirik korxonalarda raqamli iqtisodiyot sharoitida g'aznachilik tizimini tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui va ichki-me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqishda hamda tadqiqot materiallaridan iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida "G'aznachilik ishi", "Budget tizimi", "Moliyaviy boshqaruv", "Raqamlashtirish" kabi fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi amalga oshirilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik ishonchlilik intervalida tekshirilganligi, statistik va faktologik qonuniyatlarda keltirilgan ishonchlilik talablariga javob berishi, yirik korxonalarda raqamlashtirish sharoitida g'aznachilik tizimini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslarining tadqiqiga, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish natijalariga hamda statistik ma'lumotlariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida yirik korxonalarda g'aznachilik tizimini tashkil etish ustuvor yo'nalishlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

yirik korxonalarda g'aznachilik tizimini moliyaviy va pul mablag'lari oqimlarini boshqarish maqsadida tadqiqot davomida ishlab chiqilgan algoritmlar asosida "1C-Buxgalteriya" dasturiy platformasining modulli yechimlari yordamida

raqamlashtirish orqali tashkil etish bo'yicha taklifi "O'zbekiston temir yo'llari" AJ "Temiryo'linfratuzilma" AJ amaliyotiga joriy etilgan ("O'zbekiston temir yo'llari" AJ "Temiryo'linfratuzilma" AJning 2025-yil 15-apreldagi 01/39-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklif amaliyotga tatbiq etilishi natijasida Jamiyat faoliyati rentabelligi va mehnat unumdorligi 7-8 foizga va shu bilan hujjatlar aylanmasi tezligi 10-15 foizga oshgan;

korrupsiyaga doir huquqbuzarliklarning oldini olish, mablag'larning maqsadli sarflanishini ta'minlash, davlat xaridlarini amalga oshirilishida ularning shaffofligini ta'minlash va bunda inson omilini kamaytirish, budget mablag'lari ustidan samarali nazorat o'rnatish maqsadida barcha turdagi xarid jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha taklifi "O'zbekiston temir yo'llari" AJ "Temiryo'linfratuzilma" AJ amaliyotiga joriy etilgan ("O'zbekiston temir yo'llari" AJ "Temiryo'linfratuzilma" AJning 2025-yil 15-apreldagi 01/39-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga tatbiqi natijasida bir nechta xarid jarayonlari avtomatlashtirilib, jamiyatda xaridlarni amalga oshirishdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar sezilarli darajada kamaytirildi, xarid jarayonlarining shaffofligi oshirildi, inson omili darajasi kamaytirilgani holda sodir etilayotgan korrupsiyaga doir huquqbuzarliklar qariyb 30 foizga kamaytirilgan;

samarali pul oqimi rejalarini tuzish, tashkilot bo'yicha to'lov grafiklarini shakllantirish va ularning ijro javobgarligini oshirish, pul oqimlarini onlayn tahlil qilish, debitorlik va kreditorlik qarzdorliklarini samarali boshqarish maqsadida "1C-Buxgalteriya" dasturiy platformasining o'zaro integratsiyalashgan modulli yechimlari yordamida yirik korxonalarda g'aznachilik tizimini tashkil etish bo'yicha bergan taklifi "O'zbekiston temir yo'llari" AJ "Temiryo'linfratuzilma" AJ amaliyotiga joriy etilgan ("O'zbekiston temir yo'llari" AJ "Temiryo'linfratuzilma" AJning 2025-yil 15-apreldagi 01/39-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga tatbiqi natijasida to'lovlar bilan bog'liq bo'lgan biznes jarayonlar takomillashtirildi, joriy etilgan tizim natijasida shartnomalar tuzilishi, bajarilishi va tugatilishi avtomatlashtirildi. Kontragentlar orasida o'zaro hisob-kitob, debitor va kreditor qarzdorliklar to'g'risidagi ma'lumotlar tizimlashtirilishi, ularga javobgar shaxslar bilan ishlash hamda operatsion davrda ularning o'zgarishini kuzatish imkoni yaratilishi natijasida korxonalar moliyaviy barqarorligi 10-15 foizga oshgan, 2 shtat birligi qisqartirilib, yiliga qariyb 230 mln. so'm iqtisod qilishga imkon yaratilgan;

yirik korxonalarining turli faoliyatiga doir barcha kerakli hisobotlar, to'lov topshiriqnomalari, shartnomalar va boshqa hujjatlarni qisqa vaqt ichida elektron shaklda yaratish hamda G'aznachilik va boshqa tegishli tashkilotlarga taqdim etish, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, ko'p sonli foydalanuvchilarning axborot resurslari bilan o'zaro aloqasini tashkil etish, moliyaviy ma'lumotlardan ruxsatsiz foydalanilishiga chek qo'yish, hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblarni onlayn amalga oshirish maqsadida g'aznachilik tizimini raqamli platformalar yordamida tashkil etish bo'yicha bergan taklifi "O'zbekiston temir yo'llari" AJ "Temiryo'linfratuzilma" AJ amaliyotiga joriy etilgan ("O'zbekiston temir yo'llari" AJ "Temiryo'linfratuzilma" AJning 2025-yil 15-apreldagi 01/39-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga tatbiq etish natijasida jamiyatda

hisobotlarni shakllantirishning avtomatlashtirilgan tizimi yaratildi, foydalanuvchilar orasida axborot almashish bo'yicha tizim zanjirlari qisqartirildi, korxonaning hisobotlilikgi sifati va darajasi oshdi, hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish raqamlashtirilib, tegishli axborot manbaalari xavfizligini ta'minlashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 1 ta xalqaro va 5 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, shundan 2 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida hamda xalqaro va respublika konferensiyalarida 6 ta ma'ruza va tezislar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan bo'lib, umumiy hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Raqamli iqtisodiyot sharoitida g'aznachilik tizimini tashkil etishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida g'aznachilik tushunchasi va ta'rifi, davlat moliyaviy oqimlarini boshqarishdagi o'rni, rivojlanish bosqichlari hamda uning vazifalaridagi o'zgarishlar, budjetning g'aznachilik tizimi bilan ijro etilishi jihatlari va bunda uning nazorati turlari yoritilib, korporativ g'aznachilikni tashkil etishning xorij tajribasi, yirik korxonada moliyaviy oqimlariga turli ta'sir etuvchi omillar sharoitida natijaviy ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar tahlili amalga oshirilgan.

Korporativ g'aznachilikni rivojlanish bosqichlarini ularning tizimda bajaruvchi vazifalariga ko'ra 3 bosqichga ajratish mumkin (1-rasm).

Texnologik omillar ta'siri natijasida g'aznachilik modellari va imkoniyatlarining o'zgarishi so'nggi 20 yillik uchun sanab o'tildi. Raqamlashtirish imkoniyatlari kengayishi hamda sanoat va ishlab chiqarishning rivojlanishi, jahon moliyaviy va fond bozorida pul mablag'lari turi hamda biznes ko'rinishlarining ko'payishi, amalda mavjud xalqaro mojarolar hamda ularga inson omilining ta'sirini hisobga olgan holda bundan keyingi 5 yillikda Osiyo mamlakatlariga "G'aznachilik 5.0" rivojlanish bosqichini olib kirishi kutilmoqda.

Daslabki bosqichlarda korporativ g'aznachilik kompaniyaning foyda markazi sifatida ifodalanib, asosan tashkiliy vazifalarga, xususan, to'lovlarni o'z vaqtida

amalga oshirish va banklar bilan o‘zaro aloqani ta’minlashga, qisqa muddatli likvidlikni bashoratlash kabi tahliliy funksiyalarni amalga oshirishga qaratilgan edi.

Korporativ g‘aznachilik foyda olish markaziga aylangan davrda zaxiralarni, debitorlik va kreditorlik qarzdorliklarini to‘lov muddatlarini uzaytirishni optimal tarzda shakllantirish orqali tashkilot kredit siyosatiga muvofiq boshqarish, ularni tahlil qilish, xedjerlash operatsiyalari hisobiga moliyaviy xavflarni boshqarish uning vazifasi hisoblangan. Uning faoliyati esa valyuta va kredit bozorida qo‘shimcha daromad olish maqsadida spekulyativ (kelajakda foyda olish uchun aktivning qiymatini oshirish yoki kamaytirish bilan amalga oshiriladigan barcha turdagi operatsiyalar) shartnomalarni amalga oshirishga qaratilgan.



1-rasm. Korporativ g‘aznachilik va uning funksiyalari transformatsiyasi¹²

G‘aznachilik budjetining ijrosi nazorati mamlakat budjet tizimi xarajatlarning kassa ijrosini ta’minlaydi, mamlakat budjetning yagona hisobini boshqaradi, samarali buxgalteriya hisobi va profilaktik davlat g‘aznachilik nazoratini tashkil qiladi, ishonchli va shaffof konsolidatsiyalangan budjet hisobotlarini shakllantiradi.

Budjetni g‘aznachilik tizimi bilan ijro etishning quyidagi afzalliklari va kamchiliklari mavjud (1-jadval).

2017-yildan so‘ng korporativ g‘aznachilik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishtirok etuvchi strategik hamkor sifatida namoyon bo‘la boshladi. Bundan tashqari, u kontragentlarga beriladigan tovar kreditlari bo‘yicha limitlarga va to‘lovlar muddati uzaytirilishini aniqlashga hamda sug‘urta qilish va

¹² Muallif tomonidan “Rossiyada moliya va g‘aznachilikni boshqarish amaliyotini o‘rganish” bo‘yicha KPMG kompaniyasi hisoboti ma’lumotlari asosida (<https://assets.kpmg/content/dam/kpmg/ru/pdf/2020/05/ru-ru-treasury-survey.pdf>) tuzilgan.

moliyalashtirish siyosatining ishlab chiqilishi uchun mas'ul tashkilot bo'lib hisoblanadi. Bunda g'aznachi kompaniya boshqaruvi maslahatchisi rolda gavdalanib, investorlar bilan aloqalarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash, soliqqa tortish va sug'urtalash tizimi xavflarini chuqur anglagan holda moliyalashtirish strategiyasini ishlab chiqishda va taqdim etishda bevosita ishtirok etadi.

G'aznachilik tekshiruvining eng asosiy vazifalari mamlakat budjet siyosatini amalga oshirish va mamlakat mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish hisoblanadi.

1-jadval

Budjetni g'aznachilik tizimi bilan ijro etishning afzalliklari va kamchiliklari¹³

Afzalliklari	Kamchiliklari
Qisqa fursatlarda davlatning moliyaviy resurslarining haqiqiy hajmini va uning o'sib borish ko'rsatkichlarini hisoblab chiqish	Har qanday operatsiyani amalga oshirish uchun pulning maqsadli ehtiyojlar uchun ishlatilayotganligini isbotlash lozimligi
Davlat moliyasining holati bo'yicha tezkor ma'lumotlarni tahlil qilish, ishlov berish va yig'ish	Har bir operatsiya qat'iy tartibga solinganligi va G'aznachilik tizimi tomonidan tekshirilishi
Mamlakat budjetining daromad hamda kassali xarajatlar qismini ijro etilishini doimiy aniqlashtirilgan monitoringini o'tkazish	G'aznachilik hisobidan barcha to'lovlarni bank hisobidan amalga oshirish kabi amalga oshirish imkonining yo'qligi
Moliya organlari tomonidan budjet xarajatlarini o'z vaqtida va maqsadli moliyalashtirish bilan budjet mablag'larini yuqori taqsimlovchilari tomonidan suiiste'mol qilishni va noto'g'ri ishlatilishini oldini olish samaradorligini doimiy nazorat qilish imkoni	Kontragentlar o'zaro hisob-kitoblar uchun g'aznachilikda tegishli hisobvaraqlarni ochishga majbur bo'lishlari, bu byurokratiya darajasini va bitimlarni amalga oshirish vaqtini uzaytirishi, moliyaviy va davlat xizmatlarini ko'rsatishda moliyaviy xarajat me'yorlariga amal qilmaslik xavfi
Ma'qullangan budjet mablag'lari doirasida budjet tashkilotlarini tovar hamda xizmatlar yetkazib beruvchilardan majburiyatlar qabul qilish jarayonida (kontrakt hamda shartnomalar tuzish) dastlabki nazorat qilish imkoniyati	Barcha davlat kontrakt operatsiyalari tashkilotning boshqa operatsiyalaridan alohida aniq ajratilishi lozimligi, budjet loyihalari va ularning bajarilish hisobotlari, mablag' o'tkazib berish bo'yicha to'lov hujjatlarining o'z vaqtida rasmiylashtirilmasligi xavfi
Budjet korxonalarini majburiyatlarini olgandan keyin shartnomada ko'rsatilgan mablag'larni g'aznachilik hisobraqamidan to'g'ridan-to'g'ri ta'minotchilarning hisobraqamiga o'tkazish natijasida pul mablag'larining harakati bo'yicha ketma-ketliklarni qisqartirish	Budjet mablag'larini qabul qiluvchilarga o'z vaqtida va to'liq o'tkazib berilmasligi xavfi, budjet limitlari to'g'risidagi ogohlantiruv ma'lumotlari ularni qabul qilib oluvchilarga o'z vaqtida yetkazilmasligi
G'aznachilik tizimining bir qadamidan ikkinchi qadamiga pul mablag'larini ko'chirib berishni soddalashtirish orqali g'aznachilik tizimidagi budjet mablag'larini operativ sarflash mumkinligi	Raqamlashtirish sharoitida g'aznachilik ijrosini modernizatsiya va integratsiya qilish uzoq vaqt va mablag' talab etishi hamda foydalanuvchilarni qayta o'qitish lozimligi, ularning o'zgarishlarga bo'lgan noroziliklariga sabab bo'lishi

¹³ Jadval muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bunda g‘aznachilikni amalga oshirish usullari jarayonlarni robotlashtirilgan avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalar va vositalar (masalan, API (Application Programming Interface), sun‘iy intellekt, blokcheyn) yordamida kengaytirilgan ma‘lumotlar yig‘ish tufayli o‘zgaradi. Bunda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan g‘aznachilik muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish uchun quyidagi jihatlarga e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi (2-jadval).

Moliya sohasini intizomli boshqarish, to‘liq shaffof hisobotlilikni ta‘minlagan holda barqaror rivojlanishga qaratilgan foyda keltiruvchi operatsiyalarni va biznes-strategiyalarni ilgari surayotgan hamda buning natijasida muvaffaqiyatga erishib kelayotgan kompaniyalardan biri bu – Coca-Cola kompaniyasidir. U turli mintaqa va davlatlardagi yirik kompaniyalarning 8 ta hududiy boshqaruvini o‘z ichiga oladi.

Coca-Cola o‘zining moliyaviy natijalarini qo‘shma Shtatlarda umumiy qabul qilingan buxgalteriya tamoyillariga muvofiq aks ettiradi (“GAAP” yoki bu yerda “hisobot” deb nomlanadi). Bundan tashqari, kompaniya GAAPga asoslangan konsolidatsiyalashgan (jamlama) moliyaviy jadvallar bilan bir qatorda, unga muvofiq kelmaydigan hisobotlarni ham taqdim etib boradi. Fikrimizcha, ushbu GAAPga nomuvofiq bo‘lgan moliyaviy hisobotlar investorlarga kompaniya asosiy faoliyati va tendensiyalarini baholashda e‘tiborga olinishi kerak bo‘lgan qo‘shimcha mazmunli moliyaviy ma‘lumotlarni taqdim etadi.

2-jadval

“G‘aznachilik 5.0” rivojlanish bosqichiga kirishda yirik korxonalarda moliyaviy vazifalarni amalga oshirishdagi maqsadli jarayonlar ketma-ketligi¹⁴

T/r	Jarayon nomi	Jarayon mazmuni
1	Tegishli texnologiyalarni tanlash	Qaysi texnologiyalar va vositalar g‘aznachilikning joriy jarayonlarini optimallashtirishga va operatsion samaradorlikni oshirishga yordam berishini aniqlash kerak
2	Raqamli yetuklikni rivojlantirish	Bozorda raqobatbardosh bo‘lib qolish uchun kompaniyalar raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni faol ravishda joriy etishlari kerak
3	Xodimlarning ommaviy xabardorligini ta‘minlash	Kompaniya xodimlari yangi texnologiyalar va vositalar bilan ishlashga o‘rgatilishi kerak, shuningdek, kompaniyaning strategiyasi va uni amalga oshirishdagi o‘zlarining rollarini tushunishlari lozim
4	Yuqori menejmentni jalb qilish	Kompaniya rahbariyati zarur yordam va resurslarni taqdim etgan holda yangi texnologiyalar va jarayonlarga o‘zgarishlarni joriy etishni faol qo‘llab-quvvatlashi kerak
5	G‘aznachilikni raqamlashtirish budjetini rejalashtirish va loyihaning yo‘l xaritasini ishlab chiqish	Budjetni muvofiqlashtirish va loyihaning tayyor Yo‘l xaritasiga, shu jumladan, homiyar, rahbarlar, ekspertlar va ijrochilar haqidagi ma‘lumotlariga ega bo‘lish, Yo‘l xaritasida loyihaning turli qismlarini amalga oshirishning muqobil usullarini ko‘rsatish

¹⁴ Jadval muallif tomonidan “Rossiyada moliya va g‘aznachilikni boshqarish amaliyotini o‘rganish” bo‘yicha KPMG kompaniyasi hisoboti ma‘lumotlari asosida (<https://assets.kpmg/content/dam/kpmg/ru/pdf/2020/05/ru-ru-treasury-survey.pdf>) tuzilgan.

So'nggi yillarda Coca-Cola kompaniyasi biznesini tubdan o'zgartirgan holda o'z portfelini franchayzing va butilkalarga quyish bo'yicha aktivlarini umumlashtirgan holda AQShda yangi sotuv tizimlarini yaratib, biznesni qayta tashkil etish orqali foydaga nisbatan sotuv, ma'muriy va operatsion xarajatlarini kamaytirishga erishgan. So'nggi 5 yil ichidagi keltirilgan qariyb barcha ko'rsatkichlar yildan yilga oshganligini ko'rish mumkin (2-rasm). Birgina 2020-yilda mazkur ko'rsatkichlarning tushib ketishi kuzatilgan bo'lib, bu koronavirus pandemiyasi davriga to'g'ri kelgan. 2021-yilga kelib kompaniya pandemiya asoratlardan qutulgan holda 2019-yilga nisbatan 3,73 %ga, 2020-yilga nisbatan esa 17 %ga oshgan holda daromad ko'rgan. Bunday o'zgarish mahsulot narxining yuqori inflyatsiya doirasida o'rtacha 6 %ga oshishi bilan hamda ichimliklar konsentratlari aralashmalarining 9 %ga ko'p sotilishi natijasida yuz bergan.

Kompaniyaning olib borayotgan faoliyati uni turli xil moliyaviy xatarlarga duchor qiladi: bozor xavfi (shu jumladan, chet el valyutasi xavfi, tovar narxlari va foiz stavkasi xavfi), kredit xavfi, likvidlik va kapital xavfi. Kompaniyaning umumiy xavflarni boshqarish dasturi moliya bozorlarining o'zgaruvchanligiga qaratilgan va guruhning pul oqimlariga salbiy ta'sirini minimallashtirishga intiladi. Kompaniya ma'lum xavf-xatarlarni himoya qilish uchun xedjerlash moliyaviy vositalaridan foydalanadi. Xatarlarni boshqarish kompaniya G'aznachiligi tomonidan direktorlar Kengashining tasdiqlangan siyosatiga muvofiq boshqariladigan tarzda amalga oshiriladi. Kompaniya G'aznachiligi guruhning filiallari bilan yaqin hamkorlikda moliyaviy xatarlarni aniqlaydi, baholaydi va ulardan himoya qiladi. Direktorlar Kengashi g'aznachilik bilan bog'liq barcha operatsiyalarni nazorat qilish tizimini ta'minlaydigan G'aznachilik siyosatini ishlab chiqqan.




2-rasm. Coca-Cola kompaniyasining 2019–2023-yillardagi moliyaviy natijalari ko'rsatkichlari dinamikasi¹⁵

¹⁵ Rasm muallif tomonidan The Coca-Cola Companyning moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida (<https://investors.coca-colacompany.com/financial-information>) tuzilgan.

Axborot oqimini saqlab turish orqali Coca-Cola kompaniyasining qobiliyatini oshirish maqsadida uning uchun IT-investitsiyalarning maqsadlariga erishish uchun dasturiy ta'minotning ba'zi xususiyatlarini yoki funksiyalarini ko'rib chiqish muhimdir. Buxgalteriya axborot tizimi barcha muhim raqamlarni va tashkilotning moliyaviy yozuvlaridan olingan ma'lumotlarni talab qiladi va ma'lumotlarni tuzilgan ko'rinishda tartibga soladi. Ushbu tizim ma'lumotlarni to'playdi, ma'lumotlarni qayta ishlaydi va tashkilotning rahbariyatiga yoki qaror qabul qiluvchilariga foydali ma'lumotlarni taqdim etadi. Bundan buxgalteriya axborot tizimi ma'lumotlarni aniq tarzda qayd eta olishiga va ma'lumotlarni himoya qila olishiga ishonch hosil qilish muhimligi kelib chiqadi.

Coca-Cola kompaniyasining g'aznachilik tizimi kompaniyaning ofis orti bo'linmalaridan biznesga qiymat keltira oladigan va kompaniya strategiyasini shakllantirishda ishtirok eta oladigan to'laqonli maslahatchilargacha bo'lgan uzoq yo'lni bosib o'tgan. Bunga g'aznachilikda an'anaviy jarayonlarni, masalan, g'aznachilik operatsiyalarini hisobga olish va naqd pullarni boshqarish operatsiyalar va jarayonlarni avtomatlashtirishning yetarli darajasini ta'minlash orqali amalga oshirilgan.



3-rasm. Davlat Moliya vazirligi G'aznachiligi vazifalari¹⁶

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridlarini amalga oshirishda g‘aznachilik tizimining zamonaviy holati tahlili”** deb nomlangan

¹⁶ Rasm muallif tomonidan Jahon banki O‘zbekiston Respublikasida xaridlarga doir hisobotlari ma'lumotlari asosida (https://www.worldbank.org/content/dam/Worldbank/document/eca/georgia/11-procurement/Uzbekistan_RUS.pdf) tuzilgan.

ikkinchi bobida O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi tizimida bosqichma-bosqich olib borilgan islohotlar, hozirgi kundagi davlat budjetining g‘azna ijrosini samarali tatbiq etish natijasida davlat tizimidagi o‘zgarishlar yoritilib, xorij davlatlarida davlat budjetini boshqarishda g‘aznachilik tizimidan foydalanish, g‘aznachilik organlarining vazifalari, g‘aznachilik sharoitida davlat xaridlarini amalda tartibga solishning huquqiy asoslari tahlil qilingan. Bundan tashqari, xorij tajribasi misolida Rossiya Federatsiyasining davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmlarini mamlakatimizda iqtisodiy va huquqbuzarliklar natijasida yo‘qotishlarning, korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish va ularni minimallashtirish, davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonidagi xatolarni imkon qadar kamaytirish maqsadida korxonalar faoliyatiga tatbiq etish bo‘yicha takliflar taqdim etilgan.

Respublikamizda davlat budjetining g‘azna ijrosini samarali tatbiq etishga barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlariga erishganimizdan keyingina muvaffaq bo‘lindi. Islohotlarning ijobiy natijalarini davlat budjeti g‘azna ijrosining muvaffaqiyatli joriy etilishida ko‘rishimiz mumkin.

Taraqqiyotimizning bugungi sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotida sodir bo‘layotgan tarkibiy o‘zgarishlar butun moliya tizimida, uning markaziy bo‘g‘ini bo‘lgan davlat moliyasida amalga oshirilayotgan islohotlar davlat moliyasini boshqarish masalalarida muayyan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish zarurligini talab qilmoqda.

So‘nggi bir necha yil ichida g‘aznachilik tashkilotining strategik ahamiyati tobora ortib bormoqda hamda ularning tuzilishi va ko‘lami oshishiga olib kelmoqda. G‘aznachilik tizimi oldiga qo‘yilgan savollarga to‘g‘ri javob topish likvidlik yoki kredit darajasi bilan kurashayotgan tashkilot va kompaniyalarga juda katta yordam beradi. Shuning uchun, aniq vazifalari belgilangan g‘aznachilik tizimi davlat uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biri mamlakatda davlat budjeti g‘azna ijrosi mexanizmini joriy qilishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1992-yil 8-dekabrda qabul qilinishi bilan mamlakatimiz moliya siyosatining huquqiy asoslari belgilab berildi, moliya va moliyaviy tizimlar rivojining yo‘nalishi ko‘rsatib berildi. “Davlat budjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi davlat mablag‘larini taqsimlash va ulardan foydalanishni tartibga solishda navbatdagi muhim qadamni bosdi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilda PF–6079-son farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilishga qaratilgan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilindi. Ushbu strategiyada moliya tizimida ham raqamli transformatsiya qilish yuzasidan ustuvor loyihalar belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasida g‘aznachilik faoliyatini yanada takomillashtirish jarayonida nazoratning ustunliklari va xalqaro tajribalarining ijobiy jihatlaridan

samarali foydalanishga e'tibor qaratish, g'aznachilik operatsiyalarini nazorat qilishni takomillashtirish, tahlil va monitoring qilish tartibini yanada takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishlarini izlab topish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ayni paytda turli mamlakatlarda davlat xaridlari uchun me'yoriy-huquqiy baza bo'lib hisoblanuvchi bir nechta hujjatlar mavjud. 1994-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasining 27-sessiyasida qabul qilingan tovarlar (ishlar) va xizmatlarni sotib olish to'g'risidagi YUNSATRAL Qonuni bozor iqtisodiyoti sharoitida ham davlat, ham korporativ xaridlar sohasidagi barcha mavjud xalqaro tajriba va amaliy ishlanmalarni o'zida to'plagan hujjatdir. Ushbu qonun Birlashgan Millatlar tashkiloti tomonidan davlat xaridlari uchun zamonaviy, samarali bozor modelini yaratish uchun namuna sifatida ishlab chiqilgan va asosan Sharqiy Yevropada iqtisodiyoti o'tish davrida bo'lgan mamlakatlar, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun mo'ljallangan.

Amerika Qo'shma Shtatlarida davlat xaridlari sohasidagi faoliyatni umumiy muvofiqlashtirish 1974-yilda Menejment va budjet vazirligining maslahat organi sifatida tashkil etilgan va 1988-yilda mustaqil doimiy davlat organiga aylangan federal xaridlar siyosati idorasi tomonidan amalga oshiriladi. Federal xarid agentliklari tomonidan amalga oshiriladigan barcha xaridlar 1 yilda ishlab chiqilgan federal sotib olish to'g'risidagi 1984-yilda ishlab chiqilgan Nizom (Xaridlarni federal tartibga solish-XFTS) bilan tartibga solinadi, unda xaridlarning barcha bosqichlari, rejalashtirishdan boshlab va tuzilgan davlat shartnomalarini boshqarishgacha (ular tugaguniga qadar) tavsiflanadi. XFTSning e'lon qilingan maqsadi federal hukumat ehtiyojlari uchun xaridlarni amalga oshiradigan barcha idoralar tomonidan yagona xarid siyosatiga va yagona xarid qoidalaridan foydalanishga rioya qilishdir. XFTSning vazifasi barcha davlat mijozlariga xarid qilish uchun cheklangan vaqtni hisobga olgan holda eng yaxshi narx/sifat (narx/narx) nisbati bo'lgan mahsulotlarni taqdim etishdir.

Bugungi kunda Yevropa Ittifoqida davlat buyurtmalarini joylashtirish hajmi va boshqa shartlarga qarab, qonunchilikning uchta yo'nalishi bilan tartibga solinadi: xalqaro, Yevropa Ittifoqi qonunchiligi va milliy. Yevropa Ittifoqining xalqaro xaridlari to'g'risidagi Nizom birinchi navbatda Jahon savdo Tashkilotining davlat xaridlari to'g'risidagi bitim talablarini o'z ichiga oladi. Yevropa Ittifoqi darajasida tartibga solinganida, davlat ehtiyojlari uchun xarid qilish uchun yagona shart-sharoitlarni ta'minlaydigan bir qator huquqiy hujjatlar mavjud bo'ladi. Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlardan xaridlar hali ham milliy qonunchilikka muvofiq davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Biroq, bu nafaqat milliy xarid qoidalarini, balki ilgari aytib o'tilgan ko'rsatmalarda belgilangan Yevropa hamjamiyatining qonunchiligi va tavsiyalarini ham hisobga oladi.

Yuqorida sanab o'tilgan hamda boshqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi har xil bo'lgan xorij davlatlarining davlat xaridlarini tashkil etish tizimlarining taqqoslama tahlili o'tkazildi.

Rivojlangan mamlakatlarning davlat xaridlari tizimlari sifat jihatidan boshqacha konseptual yondashuv bilan ajralib turadi, bu ko'proq global raqamli

rivojlanish va xavfsizlik muammolarini hal qilish, ishlab chiqarish va boshqaruvni takomillashtirish, asosiy ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi darajasini ta'minlash va ularning manfaatlarini qondirish bilan bog'liq. Rivojlanayotgan mamlakatlar korrupsiya, qashshoqlik darajasi va aholiga asosiy xizmatlar va tovarlarni taqdim etish muammolaridan kelib chiqadigan taktik muammolarni hal qilmoqdalar, shuning uchun mexanizmlar va vositalar mavjud moliyaviy, ishlab chiqarish va texnologik salohiyatga juda bog'liq.

Xalqaro tajriba mamlakatimizda xaridlarni amalga oshirish tizimining muvaffaqiyatli ishlashi uchun foydali bo'lishi mumkin. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, davlat buyurtmalari har qanday mamlakatda, davlatning bozor munosabatlariga jalb qilish darajasidan qat'iy nazar, iqtisodiy rivojlanish darajasiga ta'sir qiluvchi kuchli omil hisoblanadi. Shu o'rinda biz tajribalaridan andoza olishimiz mumkin bo'lgan rivojlangan davlat sifatida Rossiya davlatining xaridlarni amalga oshirish tizimini hamda mamlakatimizda uning tajribasini tatbiq etish imkoniyatlarini o'rgandik.

Rossiya Federatsiyasining g'aznachilik tizimi hozirgi kunga qadar qadimgi Rusiya davridan boshlab, revolyutsiya davrigacha, undan so'ng Sovet va Sovetdan keyingi davrgacha bo'lgan o'ziga xos davrga ega evolyutsiya bosqichlaridan o'tgan. Hozirgi davrdagi yaralishi va rivojlanishi tendensiyalari quyidagicha ko'rinishga ega.

3-jadval


Rossiya Federatsiyasining g'aznachilik tizimi rivojlanishi tendensiyasi¹⁷

Davr bosqichi	Davrga xos islohotlar	Islohotlar yili
1-davr	Rossiya G'aznachiligi faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikni shakllantirish	2004 – 2016-yillar
2-davr	Rossiya G'aznachiligining moliyaviy yuridik shaxsini unga bekor qilingan “Росфиннадзор”ning vakolatlarini berish orqali kengaytirish, Rossiya G'aznachiligi “boshqaruv tizimi” maqomini olishi	2016–2020-yillar
3-davr	Rossiya G'aznachiligining moliyaviy yuridik organi unga g'aznachilik to'lov tizimi operatori vakolatini berish, g'aznachilikni qo'llab-quvvatlash, g'aznachilik xizmatlarini ko'rsatish, g'aznachilik to'lov tizimida monitoring o'tkazish orqali transformatsiya qilish, Rossiya G'aznachiligi “tranzaksion tizim” maqomini olishi	2020-yil va hozirgi davr

Rossiya Federatsiyasida xaridlarning yangi huquqiy tizimi 2013-yildagi 44-FZ-sonli “Davlat va munitsipal ehtiyojlar uchun tovar, ish va xizmatlarni xarid qilish shartnoma tizimi to'g'risida”gi qonunning qabul qilinishi bilan boshlandi. Bunda samarali ta'minlash masalasi xaridlar sohasidagi shartnoma tizimi tamoyillarida o'z aksini topdi (4-rasm).

¹⁷ Jadval muallif tomonidan “Rossiyada moliya va g'aznachilikni boshqarish amaliyotini o'rganish” bo'yicha KPMG kompaniyasi hisoboti ma'lumotlari asosida (<https://assets.kpmg/content/dam/kpmg/ru/pdf/2020/05/ru-ru-treasury-survey.pdf>) tuzilgan.

Shartnoma sotib olish tizimi davlat va biznes oʻrtasidagi munosabatlarning tamoyillari va qoidalarini belgilaydi, bu jarayonda ochiq, murosali va adolatli biznes munosabatlari shakllanadi. Ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlarni, shuningdek, davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun tovarlar va xizmatlarni sotib olish boʻyicha tuzilgan koʻplab shartnomalar fuqarolik huquqi sohasini rivojlantirishga yordam beradi.



4-rasm. Yirik korxonalarining davlat xaridlari shartnoma tizimi tamoyillari¹⁸

Rossiya Federatsiyasida xaridlar sohasidagi shartnomalar tizimi davlat va munitsipalitetning jamoatchilik oldida davlat funksiyalarini bajaradi, yaʼni bunday vaziyatda korrupsiya omillariga qarshi kurash masalasi koʻndalang qoʻyiladi. Shartnoma tizimi rivojlangan mamlakatlar uchun juda muhim boʻlgani kabi Rossiya uchun ham kichik biznesni rivojlantirish va qoʻllab-quvvatlash vositasidir. Hukumat uchun xaridlar iqtisodiyotning qaytarilish xususiyatini yengish uchun inqirozli vaziyatlarda oqilona foydalanish lozim boʻlgan muhim resurs hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi 378-sonli “2018–2020-yillarga moʻljallangan korrupsiyaga qarshi Milliy reja toʻgʻrisida”gi Farmoni bilan Rossiya Federatsiyasi hukumatiga tadbirkorlik subyektlari birlashmalari vakillari ishtirokida tashkilotlar va korxonalarda korrupsiyaga qarshi standartlarni joriy etish mexanizmlari va shartlarini koʻrib chiqish, ularning qoʻllanilishi, xususan, kontragentlar bilan biznes aloqalarini oʻrnatishda korrupsiya xavfiga duchor boʻlgan iqtisodiy faoliyatning ayrim sohalaridagi xaridlar doirasini oʻrganib chiqish yuklatilgan. Farmonda, shuningdek, Rossiya Federatsiyasi mehnat

¹⁸ Rasm muallif tomonidan Rossiya Federatsiyasi Hisob palatasi “Rossiya Federatsiyasida davlat va korporativ xaridlar tizimining rivojlanishi monitoringi” hisobot maʼlumotlari asosida (<https://ach.gov.ru/upload/iblock/123/442w02xo0vq4unq199jwxnr9mpow972c.pdf>) tuzilgan

va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga manfaatdor federal davlat organlari ishtirokida davlat va shahar xaridlari sohasida korrupsiya xavfini aniqlash va minimallashtirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish topshirildi.

Korrupsiya xavfini aniqlash va minimallashtirish korrupsiyaga qarshi kurash Milliy rejasida davlat xaridlari tizimining faoliyatini normallashtirish bo'yicha ishlarning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi, bu mutlaqo oqilona pozitsiyadir. Davlat xaridlari tizimi huquqiy tartibga solishning murakkabligi va huquqiy nizolarning mavjudligi tufayli korrupsiya xavfi paydo bo'ladigan sohadir. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha harakatlar doirasida korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida korrupsiya xavfini aniqlash va uni oldini olishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Rossiya Federatsiyasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Vazirligining umumiy uslubiy tavsiyalarida keltirilgan me'yoriy ta'rifga ko'ra, korrupsiya xavfi – "Federal davlat xizmatida lavozimlarni egallagan shaxslarning harakatlari (harakatsizligi) va davlat korporatsiyalarida (davlatga tegishli) lavozimlarni egallash imkoniyatini beradigan shartlar hamda ularning xizmat vazifalarini bajarishda noqonuniy foyda olishga qaratilgan holatlar"dir.

Rossiya G'aznachiligining moliyaviy yuridik organining sifatli transformatsiya qilinishiga quyidagi omillar ta'sir o'tkazgan.

4-jadval

G'aznachilik tizimining sifatli transformatsiya qilish davrida unga ta'sir o'tkazgan omillar¹⁹

T/r	Ta'sir ko'rsatuvchi omillar	Transformatsiya davri (taxminiy)
1	Ma'muriy islohotlar	2 yil
2	Federal g'aznachilik tomonidan boshqariladigan davlat axborot tizimlarini yaratish, ishga tushirish, ishlab chiqish va ulardan foydalanish	10 yil
3	Davlat nazoratini amalga oshirish me'yoriy-huquqiy bazasini qayta isloh qilish	3 yil
4	Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi tarkibidagi Federal moliyaviy va budget nazorati xizmatini bekor qilinishi	5 yil
5	Rossiya Federatsiyasi budget tizimining budget ijrosi tizimini isloh qilinishi	2 yil
6	Rossiya iqtisodiyoti va davlat boshqaruvini raqamlashtirish jarayoni	3 yil

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu amalga oshirilgan islohotlarda korrupsiyani oldini olishda eng katta xavf tug'diruvchi tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish va davlat ehtiyojlari uchun xizmatlar ko'rsatishga buyurtma berish funksiyalariga e'tibor qaratilgan. Shu sababli, korrupsiya xatarlari konsepsiyasida qayd etilgan barcha subyektlar korrupsiya xatarlariga qarshi kurashish va minimallashtirish mexanizmlarini ishlab chiqishlari, korrupsiya xatarlarini baholab

¹⁹ Jadval muallif tomonidan Rossiya Federatsiyasi Hisob palatasi "Rossiya Federatsiyasida davlat va korporativ xaridlar tizimining rivojlanishi monitoringi" hisobot ma'lumotlari asosida (<https://ach.gov.ru/upload/iblock/123/442w02xo0vq4unq199jwxnr9mpow972c.pdf>) tuzilgan.

va korrupsiya xatarlari darajasini pasaytirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni ishlab chiqishlari zarur bo'ladi.

Rossiya tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, korrupsiya xavfini minimallashtirish yoki yo'q qilish uchun quyidagi usullardan foydalanish kerak:

korrupsiya sxemalarini amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni o'rnatish;

korrupsiya-xavfli funksiyani bajarish vakolatlarini amalga oshirishda ma'muriy protseduralarni aniq tartibga solish;

korrupsiya xatarlarini bartaraf qilish (ma'lum bo'lgan);

belgilangan muddatlarda (oyda bir marta, chorakda bir marta) ichki nazoratni amalga oshiradigan mas'ul shaxslarning topshirig'i bilan mansabdor shaxslar tomonidan o'z vazifalarini bajarishi ustidan ichki nazoratni tashkil etish zarur. Rejalashtirilgan va rejadan tashqari monitoringni ta'minlash kerak (masalan, shikoyat yoki belgilangan fakt bilan boshlangan).

tashkilot binolarida audio va video yozish uskunalaridan foydalanish;

korrupsiyaga doir xatti-harakatlarni bartaraf etishga qaratilgan o'quv-uslubiy ishlarni olib borish.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasi korxonalarida g‘aznachilik xizmatini joriy etish va ularni takomillashtirish yo‘llari”** deb nomlangan uchinchi bobida korxonalarda g‘aznachilik tizimini samarali tashkil etish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar hamda bunda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar yoritilgan. Bundan tashqari, korxonaning g‘aznachilik tizimini raqamli texnologiyalardan hamda boshqa avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda transformatsiya qilish natijasida korxonaning moliyaviy manbaalaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Beqaror moliyaviy ahvol davrida ko'plab yirik korxonalarni boshqarish uchun eng dolzarb masalalardan biri moliyaviy menejment bilan bog'liq ishlarning samaradorligini oshirishdir. Yirik korxonalarda moliyaviy oqimlarning harakatini nazorat qilish alohida ahamiyatga ega. Negaki, korxonalarining rivojlanish strategiyasi bilan bog'liq bo'lmagan tizimsiz moliyalashtirish mablag'larning “isrof qilinishiga” va o'sish sur'atlarining pasayishiga olib kelishi sir emas.

G‘aznachilik jarayonini avtomatlashtirish tizimini tanlashda quyidagi mezonlarga e'tibor qaratish tavsiya qilinadi:

mavjud resurslar va qo'shimcha kapitalni jalb qilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda istiqbolli moliyaviy sharoitlarni modellashtirish mumkinligi;

rejalashtirish paytida filiallar va bo'linmalarning tafsilotlarini kiritish imkoniborligi;

har qanday murakkablik darajasidagi bo'ysunuvchi budjetlardan foydalangan holda har bir modelni individual sozlash sharoiti yaratilganligi;

tashqi ma'lumotlar manbalari asosida sotish va sotib olish rejalari bo'yicha to'lovlarni rejalashtirish, ularni to'lash to'g'risidagi so'rovni shakllantirish vaqtida mablag'larning sarflanishini tezkor nazorat qilish imkonining mavjudligi;

turli ssenariylar yordamida prognoz va haqiqiy moliyaviy holat ma'lumotlarini taqqoslash, rejalashtirish davrining ketma-ket o'zgarishini hisobga

olgan holda rejalashtirish imkoni mavjudligi;

faqat rejalashtirilgan ma'lumotlar, reja-amal va bir nechta rejalarni taqqoslash asosida biznes modelini tahlil qilish, budget reglamentiga muvofiq mas'ul ijrochilar uchun vazifalarni shakllantirish va ularning bajarilishini nazorat qila olish chorasi ishlab chiqilganligi.

Yirik korxonalarda g'aznachilik tizimini yaratish jarayonini 2 asosiy bosqichga bo'lish mumkin:

g'aznachilik faoliyatining modelini yaratish: tayyorgarlik bosqichi, bu yerda nazariy jihatdan korxonaga uchun yangi tuzilma ishining barcha asosiy nuqtalari "ijro etiladi";

kompaniyaning ish amaliyotida g'aznachilik xizmatini joriy etish va avtomatlashtirish.

Bundan tashqari, dasturni muvaffaqiyatli joriy etishda xatarlarni minimallashtirish va tizimdan samarali foydalanishni ta'minlash yo'lida paydo bo'ladigan quyidagi muammolarni o'z vaqtida aniqlash va hal qilish muhim hisoblanadi:

xodimlar raqamlashtirish dasturi bilan ishlashga tayyor bo'lmaganda, bu unumdorlikning pasayishi, ma'lumot topishda qiyinchilik va xatolarda o'zini namoyon qilishi mumkin;

agar tizim muayyan biznes jarayonlariga mos kelmasa, bu foydalanishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin;

agar texnik yordam darajasi juda ko'p narsani talab qilsa, bu kechikishga va xodimlarning noroziligiga olib kelishi mumkin;

agar tizim noto'g'ri tuzilgan bo'lsa, bu ma'lumotlar xavfsizligi xavfiga olib kelishi mumkin.

Mazkur muammolarni barataraf etish maqsadida quyidagi takliflarga amal qilish maqsadga muvofiq:

jamoaga uchun video darsliklar va ko'rsatmalar kabi kerakli materiallarni tayyorlash;

avtomatlashtirish va zarur jarayon o'zgarishlari o'rtasida to'g'ri muvozanatga erishish;

texnik qo'llab-quvvatlash bo'yicha taxminlarni muvofiqlashtirish va hujjatlashtirish;

tizimni zaifliklar uchun muntazam tekshirib turish va ularni zudlik bilan tuzatish;

xavfsizlik xabardorligini oshirish va ma'lumotlar bilan ishlash qoidalarini o'rgatish;

keraksiz xarajatlardan qochish uchun tizimdan nima kutilayotganini aniq tushuntira olish.


Raqamlashtirish orqali yaratiladigan sharoitlar natijasida nafaqat davlat moliyasi haqidagi ma'lum nazariy bilimlarga ega bo'lgan, balki davlat budjeti g'azna ijrosi jarayonlarida vujudga keladigan holatlarni tushuna oladigan, budget ijrosi ishtirokchilari bo'lgan moliya organlari, g'aznachilik bo'linmalari, budget tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilar amaliy faoliyatini samarali tashkil qila oladigan, davlat mablag'larini samarali boshqarishga qaratilgan boshqaruv

qarorlarini qabul qila oladigan zamonaviy mutaxassislar tayyorlash yuqori darajali masala bo'lib qolmoqda.

G'aznachilik tizimini professional darajada joriy etish yo'qotishlar, zararlarni vujudga kelish imkonini va to'lovlarning kechikishi ehtimolini kamaytiradi. Bu bizga kompaniya resurslaridan samarali foydalanish, daromad va xarajatlarni oldindan rejalashtirish, har xil xavfli vaziyatlarning oldini olish imkonini beradi.

Hozirda g'aznachilik tizimini joriy etishdagi eng og'riqli muammolardan biri raqamli texnologiyalardan foydalana oladigan, ularning ma'lumot xavfsizligi doriasidagi mohiyatini tushuna oladigan kadrlarni topish bo'lib qolmoqda.

Texnologiyalarning kombinatsiyasi va ularning har biri mustaqil ravishda avtomatlashtirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, ammo bu raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati bilan cheklanmaydi. Kompaniyalar, birinchi navbatda, moliyaviy birlikni avtomatlashtirishning hozirgi darajasiga asoslanib, individual ehtiyojlarni hisobga olgan holda professional yechim tanlashlari kerak. G'aznachilikning dolzarb vazifalarini hal qilishga yordam beradigan va tashkilotlarni yangi texnologik darajaga olib chiqishga hissa qo'shadigan asosiy texnologiyalar 5-rasmda keltirilgan.



5-rasm. Tashkilotda g'aznachilik tizimining moliyaviy funksiyalarini raqamlashtirishda foydalaniladigan texnologiyalar²⁰

G'aznachilik budjetining ijrosi nazorati mamlakat budjet tizimi xarajatlarning kassa ijrosini ta'minlaydi, mamlakat budjetning yagona hisobini boshqaradi, samarali buxgalteriya hisobi va profilaktik davlat g'aznachilik nazoratini tashkil qiladi, ishonchli va shaffof konsolidatsiyalangan budjet hisobotlarini shakllantiradi.

²⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Исполнение бюджета движения денежных средств (Выводить корректировки бюджета отдельно)

Сформировать: Выбрать варианты: Настройки: Выбрать настройки: Сохранить настройки: Еще ?

Корректировка БДДС

Параметры: Период 01.01.2018 - 31.12.2018
Сценарий 1: Квартальный (по месяцам)
Статусы документов: Все

Организация Статья оборотов	Январь 2018 г.			Февраль 2018 г.			Март 2018 г.		
	Квартальный (по месяцам) (без учета корректировок)	Квартальный (с учетом корректировок)	Отклонение по корректировкам	Квартальный (по месяцам) (без учета корректировок)	Квартальный (с учетом корректировок)	Отклонение по корректировкам	Квартальный (по месяцам) (без учета корректировок)	Квартальный (с учетом корректировок)	Отклонение по корректировкам
	сумма в валюте:	сумма в валюте:	сумма в валюте:	сумма в валюте:	сумма в валюте:	сумма в валюте:	сумма в валюте:	сумма в валюте:	сумма в валюте:
	упр. учета	упр. учета	упр. учета	упр. учета	упр. учета	упр. учета	упр. учета	упр. учета	упр. учета
Торговый дом ООО	487 500.00	487 500.00		1 200 000.00	1 200 000.00		1 100 000.00	1 100 000.00	
Авансы, полученные от покупателей	1 350 000.00	1 350 000.00		1 350 000.00	1 350 000.00		1 350 000.00	1 350 000.00	
Административные расходы	-375 000.00	-375 000.00		-375 000.00	-375 000.00		-375 000.00	-375 000.00	
Аренда	-67 500.00	-67 500.00		-225 000.00	-225 000.00		-225 000.00	-225 000.00	
Выдача под авансовый отчет	-185 000.00	-185 000.00		-185 000.00	-185 000.00		-185 000.00	-185 000.00	
Выручка от реализации продукции	7 000 000.00	7 000 000.00		7 900 000.00	7 900 000.00		8 200 000.00	8 200 000.00	
Командировочные расходы	-260 000.00	-260 000.00		-260 000.00	-260 000.00		-260 000.00	-260 000.00	
Материальная помощь	190 000.00	190 000.00		190 000.00	190 000.00		190 000.00	190 000.00	
Оплата поставщикам, подрядчикам	-2 850 000.00	-2 850 000.00		-2 850 000.00	-2 850 000.00		-3 850 000.00	-3 850 000.00	
Оплата труда	-2 750 000.00	-2 750 000.00		-2 750 000.00	-2 750 000.00		-2 750 000.00	-2 750 000.00	
Отчисления	-815 000.00	-815 000.00		-815 000.00	-815 000.00		-815 000.00	-815 000.00	
Приобретение объектов недвижимости	-550 000.00	-550 000.00		-550 000.00	-550 000.00		-550 000.00	-550 000.00	
Прочие выплаты и перечисления	-170 000.00	-170 000.00		-170 000.00	-170 000.00		-170 000.00	-170 000.00	
Прочие поступления	400 000.00	400 000.00		400 000.00	400 000.00		400 000.00	400 000.00	
Теплоэнергия	-130 000.00	-130 000.00		-130 000.00	-130 000.00		-130 000.00	-130 000.00	
Электричество	-150 000.00	-150 000.00		-150 000.00	-150 000.00		-150 000.00	-150 000.00	
Итого	487 500.00	487 500.00		1 200 000.00	1 200 000.00		1 100 000.00	1 100 000.00	

6-рasm. "1C: Бухгалтерия" dasturiy platformasida pul mablag'lari budjetining bajarilishi ko'rinishi²¹

So'nggi yillarda turli xil mulkchilik shaklidagi korxonalar tobora ko'payib, "1C: Бухгалтерия" dasturini korxonani boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi sifatida tanlamoqdalar. Bunda 1C platformasida har xil turdagi biznes faoliyati uchun ishlab chiqilgan yechimlar doimiy ravishda kengayib bormoqda. 1C budjetni avtomatlashtirish vositalari esa har qanday korxonaga uchun moslashuvchanligi va ko'lamini, sozlanishi budjet shakllari va moliyaviy hisobotlarning qulay mexanizmi sababli mos kelaveradi.

"1C: Бухгалтерия" xususiy dasturiy mahsulotini joriy qilishda, asosan, savdo, xizmat ko'rsatish yoki ishlab chiqarish bo'ladimi turli sohalardagi korxonalarda dasturni amalga oshirishda deyarli farqlar yo'q, chunki g'aznachilik jarayoni barcha korxonalarda taxminan bir xil. Biroq, dastlabki bosqichda korxonada g'aznachilikni avtomatlashtirish uchun qanday tizim zarurligini aniq tushunish muhimdir.

Yirik korxonalarda pul oqimlarini boshqarish jarayonini qurishda ma'lum bir harakatlar ketma-ketligiga rioya qilish lozim:

- kompaniyaning moliyaviy tuzilmasini rivojlantirish;
- moliyaviy javobgarlik markazlari uchun pul oqimi (PO) harakatlarining tuzilishini ishlab chiqish;
- rejalashtirilgan ko'rsatkichlarni ro'yxatdan o'tkazish ularga o'zgartirish kiritish jarayonlarini muvofiqlashtirish tartibini ishlab chiqish;
- to'lovlarni boshqarish qoidalarini ishlab chiqish;
- pul mablag'larini chiqib ketishi uchun hujjatlarni tasdiqlash yo'nalishlarini ishlab chiqish;
- nazorat ko'rsatkichlar majmuini aniqlash;
- kerakli ma'lumotlar namunalarini va to'g'ri jarayonlarni yaratadigan

²¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

G‘aznachilik tizimi avtomatlashtirilayotgan tashkilot rahbariyati xodimlarning ichki qarshiligini sindirish tizimini ishga tushirib, to‘lovlar ularga tayinlangan barcha standart tasdiqlashning yangi tartib-qoidalaridan boshqa yo‘l bilan o‘tmasligiga qaror qilganligini tushuntirishi lozim bo‘ladi. Boshqaruv ham shunga yarasha talabchan va natijada tizim foydalanuvchilari boshqa yo‘l yo‘qligini anglashlariga erishishi lozim bo‘ladi.

XULOSA

Raqamli iqtisodiyot sharoitida yirik korxonalarda g‘aznachilik tizimini tashkil etish istiqbollari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Katta hajmdagi ma‘lumotlar bazasi bilan ishlaydigan yirik korxonalarda g‘aznachilik tizimini “1C: Buxgalteriya” dasturiy platformasining modullari asosida joriy etish orqali hisob yuritishga sarflanadigan mehnat xarajatlarini kamaytirishga, boshqaruv va boshqa hisobotlarni tayyorlashga ketadigan vaqtni qisqartirishga, moliyaviy oqimlarni samarali boshqarishga, shuningdek, omborlarni hisobga olish, sotib olish, sotish va bu borada avtomatik tarzda hisobot tayyorlashga, to‘lov topshiriqlarini shakllantirish, moliyaviy majburiyatlarning bajarilishini nazorat qilish va qarzdorlikni bartaraf etish uchun barcha choralarni zudlik bilan ko‘rishga erishish mumkinligi ko‘rsatib berildi.

2. Yirik korxonalarda g‘aznachilik tizimini raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali joriy etish pul mablag‘larini doimiy tanqisligiga barham berish, muhim resurslarga qilinadigan xarajatlarni kelishish tizimini takomillashtirish, moliyaviy manbaalardan samarali foydalanish va ularni to‘g‘ri boshqarish, noaniq ma‘lumotlar natijasida noto‘g‘ri qaror qabul qilish ehtimolini kamaytirish, moliyaviy ma‘lumotlar xavfsizligi darajasini oshirish, pul mablag‘larini boshqarishga sarflanadigan mehnat sig‘imi va vaqtini kamaytirish imkonini beradi.

3. Yirik korxonalarda g‘aznachilik tizimini moliyaviy va pul mablag‘lari oqimlarini samarali boshqarish maqsadida korxonaga tegishli xodimlarni “Moliyaviy boshqaruv”, “Raqamlashtirish” sohasida o‘qitish hamda rivojlantirish orqali korxonaga moliyaviy faoliyati rentabelligi va mehnat unumdorligini oshirish mumkin.

4. Davlat xaridlarini amalga oshirish sohasining raqamlashtirilishi g‘aznachilikning asosiy vazifalaridan biri hisoblangan korrupsiya xavfi darajasini minimallashtirish vazifasini inson omilini kamaytirgan holda amalga oshirilishiga asos yaratib, biznesni rivojlantirishda ma‘muriy to‘sqinliklarning oldini oladi hamda xaridlarning turli shakllarining joriy etilishida budget jarayonlarining shaffofligini oshiradi. Korrupsiyaga doir huquqbuzarliklarning oldini olish, mablag‘larning maqsadli sarflanishini, davlat xaridlarini amalga oshirilishida ularning shaffofligini ta‘minlash va bunda inson omilini kamaytirish, budget mablag‘lari ustidan samarali nazorat o‘rnatish maqsadida barcha turdagi xarid jarayonlarini korxonaga g‘aznachilik faoliyati bilan integratsiyalashgan holda raqamlashtirish maqsadga muvofiq.

5. Mamlakatimizda g'aznachilik tizimini raqamlashtirish dastlabki bosqichlardan o'tmoqda. Budget operatsiyalari hisobini avtomatlashtirish, elektron davlat xaridlari tizimini joriy etish, budgetlararo operatsiyalarni hisobga olish platformalarini yaratish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Biroq, ma'lumotlar integratsiyasi va turli tahlil tizimlari yanada rivojlanishni talab qilmoqda. Xorijiy davlatlar amaliyotida keng qo'llayotgan g'aznachilik nazorati institutlarining zamonaviy usullaridan foydalanish, uni yanada takomillashtirish rivojlanayotgan davlat sifatida O'zbekiston Respublikasida ham yirik korxonalarda g'aznachilik faoliyatini raqamlashtirish eng muhim ishlardan biri ekanligini ko'rsatmoqda.

6. Yirik korxonalarda samarali pul oqimi rejalarini tuzish, tashkilot bo'yicha to'lov grafiklarini shakllantirish va ularning ijro javobgarligini oshirish, pul oqimlarini onlayn tahlil qilish, debitorlik va kreditorlik qarzdorliklarini samarali boshqarishni "1C-Buxgalteriya" raqamli dasturiy platformasining o'zaro integratsiyalashgan moduli orqali amalga oshirish mumkin.

7. Yirik korxonalarining turli faoliyatiga doir barcha kerakli hisobotlar, to'lov topshiriqnomalari, shartnomalar va boshqa hujjatlarni qisqa vaqt ichida elektron shaklda yaratish hamda g'aznachilik va boshqa tegishli tashkilotlarga taqdim etish, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, ko'p sonli foydalanuvchilarning axborot resurslari bilan o'zaro aloqasini tashkil etish, moliyaviy ma'lumotlardan ruxsatsiz foydalanilishiga chek qo'yish, hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblarni onlayn amalga oshirishni g'aznachilik tizimini raqamli platformalar yordamida tashkil etish orqali amalga oshirish kerak.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ №DSc.19/04.07.2023.1.88.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ БИЗНЕСА И
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА ПРИ КАБИНЕТЕ МИНИСТРОВ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**ВЫСШАЯ ШКОЛА БИЗНЕСА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА ПРИ
КАБИНЕТЕ МИНИСТРОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

ЗУЛФИКАРОВ ФАРХОД ЮЛДАШХОДЖАЕВИЧ

**ПЕРСПЕКТИВЫ ОРГАНИЗАЦИИ КАЗНАЧЕЙСКОЙ СИСТЕМЫ НА
КРУПНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ
ЭКОНОМИКИ**

08.00.16 – Цифровая экономика и международная цифровая интеграция

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Ташкент – 2025 год

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером ВАК № В2023.2.PhD /Лqt3148.

Диссертация выполнена в Высшей школе бизнеса и предпринимательства при Кабинете Министров Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации подготовлен на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) и опубликован на официальном сайте Высшей школы бизнеса и предпринимательства при Кабинете Министров Республики Узбекистан (www.rgsbm.uz) и на информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Бобокулов Тулкин Ибодуллаевич
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Тешабоев Тулкин Закирович
доктор экономических наук, профессор
Иминова Наргиза Акрамовна
кандидат экономических наук, доцент


Ведущая организация: Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится в Высшей школе бизнеса и предпринимательства при Кабинете Министров Республики Узбекистан на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней за номером DSc.19/04.07.2023.1.88.01 «25» - 07 2025 года в 14⁰⁰ Ташкент, ул. Мирабадская, дом 25. Тел.: (99871) 239-03-05; факс: (99871) 239-03-03; e-mail: info@gsbe.uz


С диссертацией можно ознакомиться в Высшей школе бизнеса и предпринимательства при Кабинете Министров Республики Узбекистан (регистрационный номер 7). Адрес: г. Ташкент, ул. Мирабад, 25. Тел.: (99871) 239-03-05; факс: (99871) 239-03-03; e-mail: info@gsbe.uz

Автореферат диссертации был выдан 07 «14» 2025 г.
(Регистрационный номер протокола «7» - 14,07 от 2025 г.).


Д.Х. Суюнов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней
доктор экономических наук,
профессор


Т.У. Калдыров
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
кандидат экономических наук,
доцент


А.Т. Кенжабаев
Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёных степеней доктор
экономических наук профессор



ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях глобального снижения наличных денег в обращении, роста процентных ставок рефинансирования и высокой экономической волатильности управление казначейством требует специальных навыков и дополнительных нагрузок на финансовый и риск-менеджмент. Основная цель управления казначейством — планирование необходимых денежных потоков для достижения будущих финансовых целей организации, правильная организация и контроль финансового менеджмента. Цифровое казначейство обеспечивает эффективное финансирование оборотного капитала, проактивно выявляет и снижает финансовые риски, поддерживает ликвидность для финансирования роста компании.¹ Согласно исследованию, проведенному Citi, компании с высокоэффективными казначейскими системами за последние 5 лет получили дополнительно 44 млрд долларов дохода.² Это, в свою очередь, привело к повышению эффективности финансовой деятельности предприятий.

Сегодня руководители стремятся минимизировать финансовые потери, выявляя риски, соответствующие внутренней политике компании на основе совершенствования системы управления казначейством. Управление казначейством позволяет эффективно управлять денежными средствами, минимизируя при этом операционные и финансовые риски. Видно, что возможности снижения финансовых рисков на предприятиях улучшились на 54% за счет цифровизации системы управления казначейством.³ Кроме того, показано, что за счет цифровизации казначейства финансовые сотрудники компании могут экономить до 30–40% рабочего времени⁴, сократить банковские сборы компании примерно на 10%, а также экономить в среднем 2 дня в месяц для каждой организации за счет эффективного учета внутрифирменных транзакций и управления спорами, а в 30 организациях системы это⁵ может сэкономить от 250 000 до 1 миллиона долларов годовых затрат (банковские комиссии, обмен валюты и т. д.).

В Республике Узбекистан цифровизация экономики также считается одной из основных задач, в том числе широкое внедрение цифровых информационно-коммуникационных технологий среди хозяйствующих субъектов. Цифровизация экономики Узбекистана, реализуемая по инициативе Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева, вызвала коренные изменения в железнодорожной отрасли как в системе мер, обеспечивающих экономическую безопасность субъектов предпринимательства, населения и всей республики. За последние годы

¹ Шахмир Халик. Citi global. Руководитель службы.

² Подготовлено на основе информации из интернет-ресурсов Ассоциации корпоративных казначеев (<https://www.treasurers.org/hub/treasurer-magazine/digital-investment-pays-dividends-for-leading-treasuries>).

³ Данные из интернет-публикации FISGlobal (<https://www.fisglobal.com/insights/digital-treasury-management-solutions-can-reduce-operational-costs>)

⁴ Информация о компании Treasury4 (<https://www.treasury4.com/the-digital-transformation-of-treasury>).

⁵ Elire's Founding Partners (<https://elire.com/understanding-the-value-of-a-treasury-management-system/>)

цифровизация железнодорожной отрасли и деятельности системных предприятий стала одной из важных задач экономической реформы нашего общества. «Укрепление финансового состояния железнодорожных предприятий, снижение себестоимости пассажирских и грузовых перевозок, создание подотчетной и стимулирующей среды для обеспечения эффективности деятельности»⁶ остается одной из самых актуальных задач в связи с нестабильной финансовой ситуацией в мире. В то же время Счетной палатой Республики Узбекистан⁷ посредством автоматизированной системы «Удаленный аудит» удалось провести проверки предприятий и организаций на сумму 443,5 млрд. сум. Предотвращены перерасходы средств на 85,2 млрд сумов и нарушения законодательства по государственным закупкам. Кроме того, в ходе предварительных испытаний по двум направлениям государственных закупок искусственный интеллект оценил 254 случая на общую сумму 6 млрд сумов как риски на предприятиях без участия человека.⁸

Диссертация будет полезна в реализации задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан от 5 октября 2020 года № УП-6079 «Об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан — 2030» и мерах по ее эффективной реализации», Постановлении от 10 октября 2023 года № ПП-329 «О мерах по коренному реформированию отрасли железнодорожного транспорта Республики Узбекистан», Постановлении от 10 июля 2024 года № ПП-100 «О дополнительных мерах по усилению финансового контроля за использованием бюджетных средств», Постановлении от 3 декабря 2024 года № ПП-70 «Об ускорении преобразовательных процессов в отрасли железнодорожного транспорта», а также других нормативных документах, касающихся данной сферы.⁹

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и техники республики. Данное диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетных направлений развития науки и техники республики I. «Приоритетные направления духовно-нравственного и культурного развития демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Уровень изученности проблемы. Казначейская система исполнения бюджета и ее регулирование, организация казначейской системы на крупных предприятиях, а также особенности эффективного управления

⁶Пункт 1 Постановления Президента Республики Узбекистан от 10 октября 2023 года № ПП-329 «О мерах по коренному реформированию железнодорожного транспорта Республики Узбекистан».

⁷Указ Президента Республики Узбекистан от 10 июля 2024 года № ПФ-100 «О дополнительных мерах по усилению финансового контроля за использованием бюджетных средств»

⁸Из отчета о деятельности Счетной палаты Республики Узбекистан за 2024 год. (<http://www.ach.gov.uz/uz/lists/view/439>)

⁹Указ Президента Республики Узбекистан от 05.10.2020 г. № ПФ-6079 «Об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» и мерах по ее эффективной реализации», Указ от 31.12.2024 г. № ПФ-70 «Об ускорении преобразовательных процессов в железнодорожной отрасли», Указ от 10.10.2024 г. № ПФ-100 «О дополнительных мерах по усилению финансового контроля за использованием бюджетных средств», Постановление от 10.10.2023 г. № ПП-329 «О мерах по коренному реформированию отрасли железнодорожного транспорта Республики Узбекистан».

предприятиями в условиях цифровой экономики анализировались зарубежными учеными, такими как И.Г.Акпаров, И.Р.Зарипова, В.Хафизова, Н.Г.Иванова, Т.Д.Маковник, Х.Н.Гизатуллин, А.А.Королев, А.В.Ларин, И.Борисюк, О.Р.Недоспасова, Т.Е.Бакланова, Л.В.Бакулевская, В.В.Ковалев, Т.Сацук, J.Diamond, H.Barry, V.Potter, P.Polak, F.Masquelier, G.Michalski.¹⁰

Теоретические, правовые и организационные основы организации казначейства, казначейского управления государственным бюджетом, казначейской деятельности в зарубежных странах рассмотрены в научных исследованиях отечественных ученых-экономистов: Т.Ш.Эшназарова, Г.А.Косимовой, Т.С.Кочкорова, А.Ж.Туйчиева, Д.А.Ташмухмедовой, А.Джураева, Н.Джумаева, У.Бурхонова, А.Раззокова, Ш.Тошматова, Нурмонова и других.¹¹

Поскольку в исследованиях, проводимых в рамках данной темы, с учетом влияния современных изменений, особенно на крупных предприятиях, системно не изучались вопросы организации казначейской системы на основе цифровизации и проблемы и препятствия, которые могут возникнуть в связи с этим, в том числе при ее реализации на базе определенной программной платформы, проведение исследований в этом направлении является актуальным.

Соответствие темы диссертации планам научных исследований высшего учебного заведения, в котором выполнена диссертация. Данное диссертационное исследование выполнено в рамках темы «Перспективы организации казначейской системы на крупных предприятиях в условиях цифровой экономики» в соответствии с планом научных исследований

